



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 4, April, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Folklore is a treasure trove of national values

Shohsanam Saparaliyeva

“Head of Choreography Teams” educational direction
2nd year student

Scientific supervisor: Honored Artist of Uzbekistan,
Associate Professor of UzDSA **Gulshoda Abdiyeva.**

Annotation:

This article highlights the role of folklore as a national value, its importance in the life of the people and its educational power. The author analyzes folklore as an important factor that reflects the historical memory, spiritual heritage and identity of the people. The transmission of oral works from generation to generation, their influence on the development of modern culture and art are also shown. The need to preserve and develop folklore in the context of globalization is emphasized.

Keywords:

Folklore, national value, oral work, spiritual heritage, folk art, education, tradition, culture, globalization, epic, fairy tale, proverb.

Folklor — milliy qadriyatlar xazinası

Shohsanam Saparaliyeva

“ Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo’nalishi
2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar : O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist,
UzDXA dotsenti Gulshoda Abdiyeva.

Anotatsiya:

Ushbu maqolada folklorning milliy qadriyat sifatidagi o’rni, uning xalq hayotidagi ahamiyati va tarbiyaviy kuchi yoritiladi. Muallif folklorni xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi hamda o’zligini namoyon etuvchi muhim omil sifatida tahlil qiladi. Shuningdek, og’zaki ijod namunalarining avloddan-avlodga o’tishi, ularning zamonaviy madaniyat va san’at rivojiga ta’siri ham ko’rsatib



berilgan. Globallashuv sharoitida folklori asrash va rivojlantirish zarurati alohida ta'kidlanadi.

Kalit soʻzlar:

folklor, milliy qadriyat, ogʻzaki ijod, ma'naviy meros, xalq ijodi, tarbiya, an'ana, madaniyat, globallashuv, doston, ertak, maqol.

Bugun sizlar bilan xalqimizning bebaho ma'naviy merosi — folklor san'ati haqida fikr yuritmoqchiman. Darhaqiqat, folklor har bir millatning o'zligini namoyon etuvchi, uning tarixiy xotirasini saqlab keluvchi va kelajak avlodga yetkazuvchi muhim boylikdir. Shuning uchun ham folklor bejizga milliy qadriyatlar xazinasini deb atalmaydi.

Folklor — bu xalqning yuragidan chiqqan, uning hayot tajribasi bilan sayqallangan ijoddir. U yozma adabiyotdan farqli o'laroq, ogʻzaki tarzda yaratiladi va avloddan-avlodga o'tadi. Shu bois folklorlarda xalqning haqiqiy hayoti, orzu-umidlari, dardlari va quvonchlari o'z aksini topadi.

Ajdodlarimiz hali yozuv rivojlanmagan davrlarda ham yuksak tafakkurga ega bo'lganlar. Ular o'z qarashlarini ertaklar, rivoyatlar, dostonlar va qo'shiqlar orqali ifoda etganlar. Bu asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan, Alpomish dostoni xalqimizning jasorati, sadoqati va vatanparvarlik ruhini yuksak darajada aks ettiradi. Ushbu asar nafaqat badiiy meros, balki tarbiyaviy qo'llanma sifatida ham qadrlidir.

Folklorning eng muhim xususiyatlaridan biri — uning jamoaviy ijod mahsuli ekanidir. Ya'ni u bitta inson emas, balki butun xalq tomonidan yaratiladi. Har bir avlod unga o'z hissasini qo'shadi, yangi ma'no va ruh bag'ishlaydi. Shu sababli folklor doimo yangilanib boradi va zamon bilan hamnafas yashaydi.

Yana bir e'tiborli jihat — folklorning tarbiyaviy kuchidir. Ertaklarda yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qiladi, maqollarda esa hayotiy haqiqatlar mujassam bo'ladi. Masalan, xalq maqollari insonni halollik, mehnatsevarlik va sabr-toqatga chorlaydi. Bu esa folklori nafaqat san'at, balki tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.



Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrash dolzarb masalaga aylanmoqda. Aynan folklor ana shu vazifani bajaradi. U millatni millat sifatida saqlab turadi, yosh avlodga kim ekanini anglatadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojiga qaramay, folklor o‘z qadrini yo‘qotmayapti, aksincha yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda folklor turli madaniy tadbirlar orqali keng targ‘ib qilinmoqda. Jumladan, Sharq Taronalari xalqaro musiqa festivali kabi nufuzli festival xalqimizning boy madaniyatini dunyoga tanitmoqda. Bunday tadbirlar orqali nafaqat musiqa, balki xalq og‘zaki ijodi namunalari ham keng ommaga yetkazilmoqda.

Shuningdek, folklor san‘ati teatr, kino va adabiyot rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab zamonaviy asarlar aynan folklor motivlari asosida yaratilmoqda. Bu esa folklorning abadiylikini va uning zamonaviy hayotdagi o‘rnini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmochimanki, folklor — bu bizning ildizimiz, tariximiz va ma’naviy tayanchimizdir. Uni asrash — o‘zligimizni asrash demakdir. Agar biz folklori unutmasak, uni rivojlantirsak, demak biz o‘z kelajagimizni mustahkamlaymiz.

Zero, folklor yashasa — millat yashaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turob To‘la. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent.
2. Mansur Afzalov. O‘zbek folklori asoslari. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashrlari. O‘zbek xalq ijodi namunalari to‘plami.
4. Internet manbalari va elektron kutubxonalar materiallari.